


TA'LIMDA YUQORI SINFLARDA GURUH RAHBARINING O'RNI.

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada umumta'lismaktablarining yuqori sinflarida guruh rahbari faoliyatining ahamiyati, uning o'quvchi shaxsini shakllantirishdagi roli hamda ijtimoiy-psixologik muhitga ta'siri ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Maqolada statistik ma'lumotlar, zamonaviy tadqiqotlar asosida guruh rahbarining ta'limgardiyidan o'rni yoritiladi.

Kalit so'zlar:

guruh rahbari, yuqori sinf, ta'limgardiyi, ijtimoiy-psixologik muhit, o'quvchi shaxsi, pedagogik yondashuv

Kirish

Maktab ta'limi jarayonida yuqori sinf o'quvchilarining shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy jihatdan shakllanishida guruh rahbari faoliyati muhim rol o'yndaydi. Guruh rahbari nafaqat sinfning tashkiliy ishlarini olib boradi, balki u o'quvchilarning ichki dunyosi, ijtimoiy holati, oilaviy muhiti bilan ham bevosita ishlaydi. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, ta'limgardiyida guruh rahbariyati samarali yo'lga qo'yilgan maktablarda o'quvchilar o'zlarini ko'proq qadrlangan, tinglangan va qo'llab-quvvatlangan his qilishadi (OECD, 2019).

Asosiy qism

Guruh rahbari – bu o'quvchilar va ota-onalar o'rtasida ko'prik vazifasini bajaruvchi pedagog bo'lib, u sinfda sog'lom psixologik muhitni yaratishga mas'uldir. Guruh rahbarining asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

Mardayev Nurmurod Gulmurodovich

Xasanov Muxiddin Kamildjanovich

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Surxondaryo akademik litseyi o'qituvchilari

E-mail: nurmerod-x@mail.ru

- O'quvchilar bilan individual ishslash;
 - Ota-onalar bilan samarali aloqa o'rnatish;
 - Ijtimoiy-pedagogik muammolarni hal etishda vositachilik;
 - Sinf jamoasini ijtimoiylashuvga yo'naltirish;
- Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil qilish va monitoring qilish.

2022-yilda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan o'tkazilgan monitoring natijalariga ko'ra, yuqori sinflarda guruh rahbari faoliyati yaxshi yo'lga qo'yilgan maktablarda o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi 18% ga yuqori bo'lgani kuzatilgan (XTV, 2022).

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, yuqori sinf o'quvchilari bilan olib boriladigan individual suhbatlar, kasbga yo'naltirish mashg'ulotlari, ota-onalar bilan muntazam aloqada bo'lish ularning psixologik holatini mustahkamlashda va motivatsiyasini oshirishda samarali ta'sir ko'rsatadi (Vygotsky, 1978; Bronfenbrenner, 1986).

Muammoli vaziyat va yechim

Muammo: 10-sinf o'quvchisi doimiy ravishda darslarga kechikib kelmoqda, topshiriqlarni bajarmayapti va o'z tengdoshlari bilan aloqa qilishdan qochmoqda. Guruh rahbari dastlab ota-onasi bilan bog'landi, biroq ular bola bilan muammo yo'qligini aytib, vaziyatga aralashishni istamadi.

Yechim: Guruh rahbari ushbu vaziyatga tizimli yondashdi. U avval o'quvchi bilan individual suhbat o'tkazdi va o'quvchining oilasidagi ziddiyatlar tufayli stress holatida ekani ma'lum bo'ldi. Keyinchalik mifik tab psixolog bilan hamkorlikda maxsus qo'llab-quvvatlovchi dastur tuzildi. Ota-onaga bola rivojlanishi uchun qanday yordam ko'rsatish kerakligi tushuntirildi. 3 oy davomida olib borilgan monitoring natijasida o'quvchining qatnashuvi 85% ga, topshiriqlarni bajarish darajasi esa 60% dan 92% ga oshdi. Ushbu holat guruh rahbarining nafaqat pedagogik, balki psixologik va ijtimoiy vositachilik roli muhimligini yana bir bor isbotlaydi.

Xulosha

Talim tizimidagi murakkab va dinamik jarayonlarda guruh rahbari shunchaki tashkiliy ishlar bilan shug'ullanuvchi emas, balki ta'lim-tarbiya jarayonining faol

ishtirokchisi, o‘quvchining shaxs sifatida shakllanishida bevosita ishtirok etuvchi pedagogik figura hisoblanadi. Yuqori sinflarda ayniqsa ushbu rol yanada ahamiyatli bo‘lib, guruh rahbari yondashuvining individual, tizimli va kasbiy asosda yo‘lga qo‘yilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. OECD (2019). *Education at a Glance 2019: OECD Indicators*. OECD Publishing, Paris.
2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. (2022). “Yuqori sinf o‘quvchilarining ijtimoiy-psixologik holati” bo‘yicha monitoring natijalari. Toshkent.
3. Vygotsky, L.S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.
4. Bronfenbrenner, U. (1986). Ecology of the Family as a Context for Human Development: Research Perspectives. *Developmental Psychology*, 22(6), 723–742.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон Фармони “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”.